

**ABDULLA AVLONIY FAOLIYATIDA MILLIY UYG‘ONISH,  
TA’LIM-TARBIYA VA ILM-MA’RIFAT G‘OYALARI**

**Karamatova Difuza Sadinovna**

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy  
pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrası dotsenti.*

**Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi**

*Nizomiy nomidagi O‘MPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi II bosqich talabasi*

*e-mail: [nigina.mahmudova06@gmail.com](mailto:nigina.mahmudova06@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asr boshlarida vujudga kelgan milliy uyg‘onish davrining yirik namoyandalaridan biri - Abdulla Avloniy hayoti va faoliyati tahlil qilinadi. Unda Avloniyning jadidchilik harakatidagi o‘rni, xalqni ilm va ma’rifatga chorlagan ezgu g‘oyalari, shuningdek, uning ta’lim va tarbiya borasidagi qarashlari yoritilgan. Shuningdek, “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ilgari surilgan ma’naviy va axloqiy fikrlar bugungi kun tarbiya jarayonlari uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etishi hamda inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin etilishi keng tahlil etilgan. Maqolada Avloniy merosining zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimidagi ahamiyati ham ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Abdulla Avloniy, jadidchilik, milliy uyg‘onish davri, ma’rifat, ta’lim, tarbiya, axloq, ilm, ma’naviyat, “Turkiy guliston yoxud axloq”, ma’rifatparvarlik, pedagogika, ilm va jaholat, yosh avlod tarbiyasi.

XX asr boshlarida Turkiston xalqlari hayotida yangi davr milliy uyg‘onish davri boshlandi. Milliy uyg‘onish davri bu xalqning o‘z milliy qadriyatlari, tili, dini, madaniyati va tarixiga nisbatan ongli munosabat shakllanib, milliy o‘zlikni anglash jarayoni kuchaygan davrdir. O‘zbek xalqi tarixida bu bosqich XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Shu yillarda yuzaga kelgan jadidchilik harakati jamiyatni yangilash, xalqni ilm va ma’rifatga chorlash, mustaqil fikrlash va taraqqiyot sari yetaklash g‘oyalarini ilgari surgan.

Ushbu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Cho‘lpon, Fitrat singari ma’rifatparvarlar o‘z xalqining ma’naviy yuksalishi uchun jonbozlik ko‘rsatganlar. Ularning faoliyati millatni jaholatdan ma’rifat sari yo‘naltirish, yangi zamon ta’lim tizimini yaratish va mustaqil fikrlaydigan avlodni tarbiyalashga qaratilgan edi. Bu davrda xalqni jaholat, savodsizlik va qoloqlikdan chiqarish uchun ko‘plab ma’rifatparvar ziyolilar kurash olib bordilar. Shunday buyuk mutafakkirlardan biri Abdulla Avloniy. Bobomiz o‘z asarlari, darsliklari, o‘quv-

qo'llanmalari, maqolalari va ijtimoiy faoliyatlari bilan o'zbek xalqining ma'naviy uyg'onishiga beqiyos hissa qo'shgan.

Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentda Mergancha mahallasida to'quvchilar oilasida tug'ilgan. Oilasidagi moddiy yetishmovchiliklar sababli bolaligidan suvoqchilik, g'isht quyish, pechkachilik, binokorlik, duradgorlik kabi kasblar bilan shug'ullangan. Bularning ortidan „Imoratchi usta“ degan nom oladi. U tarjimai holida bu haqida shunday yozgan: “12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qiy boshladim. 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor bo'lib ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda “Tarjumon” gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim”. O'qchidagi eski maktabda, so'ng madrasada o'qigan (1885- 1895). Madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug'ullandi. Orenburg, Qozon, Tiflida chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib borgan.

Avloniy XX asr boshida jadidchilik harakatiga qo'shildi. Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri sifatida tanildi. 1906-yildan she'rlari bilan matbuotda qatnasha boshlagan. Arab, fors, rus tillarini o'rganib, bu tillarda ijod qilgan mutafakkirlarning asarlarini o'qigan, ba'zilar (masalan, Lev Tolstoy, Konstantin Ushinskiy asarlari)ni o'zbek tiliga tarjima qilgan.

1906-yilda “Taraqqiy”, 1907-yilda o'z uyida “Shuhrat” gazetalarini chiqargan. Bu gazetalar yopib qo'yilgach, 1908-yilda yashirin ravishda “Osiyo” gazetasini nashr etdi. 6-sonidan so'ng hukumat bu gazetani ham taqiqlab qo'ygan.

Avloniy birinchi bo'lib kimyo, geografiya, fizika va astronomiya fanlarini maktabda o'qitish taklifini beradi. Ilg'or g'oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi: Toshkent shahrining Mirobod mahallasida mahalliy aholi bolalari uchun yangi usul maktabi ochib (1908), o'zi ona tili va adabiyotdan dars berdi.

1909-yilda “Jamiyati hayriya” tuzib, yetim bolalarni o'qitgan. Shu yili “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” nomli to'rt qismdan iborat she'riy to'plamining birinchi juz'ini nashr ettirgan.

1912-yilda Avloniy Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochgan. Bu maktabda dunyoviy fanlar o'qitilishi bilan maktabxonalardan farq qilgan.

## Avloniyning tarjimonlik borasidagi yutuqlari

## Tarjimalari

Avloniy XIX asrda  
rus mumtoz  
adabiyoti vakillari  
I.A.Krilov va  
L.N.Tolstoyning  
asarlarini o'zbek  
tiliga tarjima qilgan

I.A.Krilovning 21ta  
masali, "Maymun ila  
ko'zoynak", "G'ayri  
jnsiy ittifoq", "It ila  
yo'lovchi"

"Qarg'a ila  
Zag'izg'on", "Tu  
ila Qarg'a" kab  
asarlarini o'zbe  
tiliga tarjima qil

Avloniy xalqni ma'rifatga undashning o'zi kifoya emasligini yaxshi bilgan. Shuning uchun ham u yangi uslub maktabini ochib, bu maktabda o'zi bolalarni o'qitadi. Shu maktab uchun "Birinchi muallim" (1909), "Ikkinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Maktab gulistoni" (1916), shuningdek, olti qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" (1909-1916) singari darsliklar, alifbo va o'qish kitoblarini yozdi. Ushbu kitoblar bolalar yoshi va saviyasiga mosligi, o'quvchilarni tezroq savodxon qilishga yo'naltirilganligi bilan zamonasining boshqa ta'limiy kitoblaridan ajralib turadi. Keyinchalik bu kitoblar Toshkentdagi barcha yangi usul maktablari uchun qayta-qayta nashr qilindi.

Axloqiy-ta'limiy asarlar, darsliklar yozib, milliy uyg'onish adabiyotining maydonga kelishi va rivojiga katta hissa qo'shgan Abdulla Avloniy ijodi bugun ham ma'naviyatimizni boyitishga xizmat qilib kelmoqda.

Abdulla Avloniy merosining shoh asari hisoblangan "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida axloq, tarbiya, odob, ilm, vatanparvarlik, halollik kabi yaxshi xulqlar ulug'langan, jaholat, bilimsizlik, hasad, yolg'onchilik, dangasalik, kibr kabi yomon xulqlar qoralangan. Bu asar ikki guruhga ajratilib, "Yaxshi xulqlar" deb nomlangan qismiga 33 maqolat, "Yomon xulqlar" deb nomlangan qismiga 21 maqolat kiritilgan.

Asar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'quvchilarni axloqiy, ma'naviy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi.

Ko'plab pedagoglar va o'qituvchilar bu asardan dars va tarbiya mashg'ulotlarida foydalanadilar.

Ushbu asarda keltirilgan tarbiya haqidagi quyidagi fikri hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan: "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat,

yo saodat, yo falokat masalasidir.” Darhaqiqat, bu soʻzlarda tarbiyaning inson va jamiyat hayotidagi oʻta muhim oʻrni chuqur ifodalangan. Insonning axloqiy kamol topishi, millatning taraqqiy etishi ham bevosita tarbiyaga bogʻliqdir. Toʻgʻri yoʻnaltirilgan tarbiya yosh avlodni bilimli, odobli va vatanparvar etib voyaga yetkazadi. Shuning uchun har bir ota-ona, oʻqituvchi va jamiyat vakili yoshlarning tarbiyasiga masʼuliyat bilan yondashmogʻi lozim.

Maʼrifatparvar bobomiz tarbiya haqida quyidagi fikrlarini bildirganlar: “Tarbiyani tugʻilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim”. Ushbu satrlar zahirida olam-olam maʼno bor.

Avloniy fikricha, tarbiya inson hayotining eng boshidan boshlanishi, uning jismoniy, aqliy va maʼnaviy kamolotini taʼminlashi zarur. Zero, tarbiya insonni mukammallikka, millatni esa yuksalishga eltuvchi eng muhim omildir.

Har bir bola tarbiyasi oiladan, keyin esa maktab va jamiyat taʼsirida shakllanadi. Shuning uchun Avloniy tarbiyani inson hayotining asosiy poydevori deb bilgan. Tarbiyani oʻzini ham nisbiy tarzda 4 qismga boʻlgan:

1. Tarbiyaning zamoni.
2. Badan tarbiyasi.
3. Fikr tarbiyasi.
4. Axloq tarbiyasi hmda uning ahamiyati xususida fikr yuritadi.

Buyuk maʼrifatparvar Avloniy taʼlim va tarbiyani ajralmas tushuncha deb bilgan. U nafaqat tarbiyaga, balki taʼlimga ham alohida urgʻu bergan, ilm va taʼlimni insonni komillikka yetklovchi asosiy kuch deb bilgan.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asarining “yaxshi xulqlar” deb nomlangan qismida ilmga quyidagi taʼrifni bergan: “Ilm deb oʻqimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni oʻrganmakni aytilur.

Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir.

Ilm inson uchun gʻoyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga oʻz ahvolimizni, harakatimizni oynak kabi koʻrsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi oʻtkur qilur. Savobni gunohdan, halolini haromdan, tozani murdordan ayurub berur, toʻgʻri yoʻlga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratta masʼud boʻlishimizga sabab boʻlur”.

Haqiqatan ham,ilm orqali insonning tafakkuri,fikrlash qobiliyati kengayadi, dunyoqarashi oʻzgaradi, jamiyatning taraqqiy etishiga,rivojlanishiga hissa qoʻsha oladigan shaxs boʻlib yetishadi. Chunki ilm insonni bu dunyoda ham, oxiratta ham sharaflaydi. Ilmsiz nsonni esa mevasiz daraxtga oʻxshatadi. Yaʼni ilmsiz kishilar nafaqat jamiyatga, balki oʻz oilasiga, hattoki oʻziga ham foyda keltira olmaydi. Ilmsiz inson-koʻr odam kabidir, u hayotdagi haqiqatni anglay olmaydi, yaxshini yomondan ajrata olmaydi. Avloniy bunday kishilarni “jaholat qorongʻiligida yashovchilar” deb taʼriflaydi. Unga

ko'ra ilm nur sochadi, ilmsizlik esa zulmatga olib kiradi. Shuning uchun ham Avloniy har bir insonni, yoshidan qat'iy nazar ilm olishga, o'z ustida mustaqil ishlashga, ma'rifatli bo'lib, jamiyatga o'z hissani qo'sha oladigan bo'lishga da'vat etadi.

Ilmi o'zini ham 2 qismga ajratadi:

1. Diniy ilmlar
2. Fanniy ilmlar

Ilm ikki yo'nalishda - diniy va fanniy turlarga ajraladi. Diniy ilm insonning ma'naviy barkamolligini ta'minlasa, fanniy ilm hayotning barcha sohalarida yuksalish va yangilik sari yetaklaydi. Shu jihatdan, ilmi inson doimo izlanishda, o'zini rivojlantirishda bo'lishi, jamiyatga foyda keltirishni hayotiy burchi deb bilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniy o'zining boy ilmiy-ma'rifiy merosi bilan o'zbek xalqining ma'naviy rivojiga, ta'lim-tarbiya tizimining shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Uning asarlari va g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan holda, pedagoglar va yoshlar uchun bebaho manba bo'lib xizmat qilmoqda.

### ADABIYOTLAR

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018.
2. Abdulla Avloniy. "Tanlangan asarlar" 1-2-jildlar. – T.: Ma'naviyat. 2006. - 55-56-bet.
3. Rasulov A. Abdulla Avloniy pedagogik qarashlari // O'zbekiston pedagogik jurnali. – T.: 2016.
4. Abrorxonova K., Bo'riyeva Sh. Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim va tarbiyaga oid qarashlar. - T.:
5. Jo'raev M. XX asr boshlarida o'zbek ma'rifatparvarlari faoliyati. -T.: O'qituvchi, 2010.
6. Saksonboyeva I., Abdupattoyeva M. Abdulla Avloniy va jadidchilik taraqqiyoti: tarixiy nuqtai nazar // Science Shine International scientific journal Issue 13, Volume 1 May 10, 2024.
7. Абдуллаев К.Ф. Мыслители востока о педагогической профессии //Культура мира и ненасилия подрастающего поколения: ракурсы интерпретации и педагогические условия развития. – 2020. – С. 117-120.
8. Karamatova D.S., Safarbayeva R.N. Abdulla Avloniy Pedagogic Merosi Orqali O'quvchilarda Vatanparvarlik Tuyg'usini Shakllantirish // Miasto Przyszłości. ISSN-L:2544-980X Table of Content - Volume 34 (Apr 2023). - Pp.344-349.

9. Karamatova D.S., Safarbayeva R.N. Ideas of Education of a Perfect Person in the Works of Abdulla Avloni // Best Journal Of Innovation In Science, Research And Development. ISSN: 2835-3579 Table of Content - Volume 2 No 4 (Apr 2023). -Pp. 261-265.

<https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/159/142>

10. Pardaeva K. Uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonida Abdulla Avloniy asarlaridan foydalanish samaradorligi / «Abdulla Avloniyning ilmiy-pedagogik qarashlari» mavzusida Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. 2020-yil 10-iyul. – T.: TDPU, 2020.

11. Салаева М.С. Ўзбек педагогикаси тарихини даврлаштиришнинг назарий-педагогик асослари. Монография. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2008. – 200 б.

12. Салаева М.С., Кислицина И.Л., Салаева М.С. Ноёб кўлёмалар коллекциялари. Монография. -Т.: Мумтоз нашриёти. 2019. - 112 б.

13. Салаева М.С ва муаллифлар жамоаси. Педагогика. Энциклопедия. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2018. – 424 б.

14. Салаева М.С. Педагогика тарихини даврлаштириш замон талаби. // Халқ таълими. – Тошкент, 2004. №2. – Б.17-19. (13.00.00).

15. Салаева М.С. Ўзбекистонда педагогика тарихини даврлаштириш муаммоси хусусида. // Ж. Педагогик таълим-Тошкент: 2007.№ 5.-Б.5-8.

16. Салаева М.С. Периодизация истории узбекской педагогики как педагогическая исследовательская задача // Ж. Современные гуманитарные исследования. -Москва. 2009. № 6. - С.164-165.

17. Салаева М.С. Действующие теоретические и практические основы периодизации истории узбекской педагогики. // Педагогические науки. Москва, 2011. №5. – С. 12-13.

18. Salayeva M.S. Pedagogical Conditions of Using the Materials of the Uzbek National Pedagogics in the Pedagogical Course Studying.// Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 3-2016. www.Auris-Verlag.de (ISSN 2199-7977) - Pp. 63-168.

19. Salaeva M.S. Periodization problems, stages of formation and development the educational system of Uzbekistan. ISSN // Actual problems of modern sciences education and training in the region. Elektronik scientific edited volume. 1.2017. P189. - Pp. 195-195. (13.00.00 №1).

20. Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda ota-onalarning o'rnini // Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». ISSN: 2658-7998. Электронный журнал. Выпуск No 24 (том 4) (март, 2022). -С.751-754. [https://www.mpcareer.ru/\\_files/ugd/a62191\\_0b77bb588ae44c41874c43e8211ea9a8.pdf](https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/a62191_0b77bb588ae44c41874c43e8211ea9a8.pdf) [https://www.mpcareer.ru/\\_files/ugd/Март%202022.%20Том%204.pdf](https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/Март%202022.%20Том%204.pdf)

21. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. (2022, November 1). Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar kelajagiga yuksak e'tibor // Problems and scientific solutions, Australia, Melbourne. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7269286>
22. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. (2022, October 11). Development of high-quality human capital is an important factor of society's development / Yuqori sifatli inson kapitalini rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida // Innovative development in the global science, Boston, USA. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7184486>
23. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. (2022). Ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish imkoniyatlari. ACADEMIC RESEARCH JOURNAL, 1(5), 9–14. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7227181>
24. Salayeva M.S., Shoyunusova F.S. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar kognitiv mobilligini xalqaro dasturlar asosida baholanishning o'ziga xos jihatlari / “Халқ таълими тизимидаги тегишли раҳбарлик лавозимларига муносиб ходимларни жой-жойига қўйишнинг долзарб масалалари” мавзусида онлайн конференция. Авлониё номидаги педагогларни касбий ривожлантириш ва янги методикаларга ўргатиш миллий-тадқиқот институти. -Т.: 2022. –Б.64-71.
25. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. Yangi O'zbekiston sharoitida uchinchi Renessansga mos barkamol avlodni shakllantirish muammolari / “XXI asr шахс тараққиёти: муаммо ва ечимлар” мавзусида 1-анъанавий талаба илмий жамияти ТИЖ илмий-амалий конференцияси, Тошкент амалий фанлар университети «Психология» кафедраси 2022 йил 20 декабрь. –Б.140-141.
26. Qosimov B., Rizaev Sh. Abdulla Avloniy (1878-1934) - <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-shuhratrizaevabdulla-avloniy-1878-1934/>
27. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият. 2004. – 296 б.